

**GO'DAKLIK DAVRIDA EMOTSIONAL MULOQOTNING O'RNI****Hamidjonova Marjona****hamidjonovamarjona6@gmail.com****Raxmatova Nilufar****sher998906249788@gmail.com****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****San'atshunoslik fakulteti****musiqa ta'limi kechki 25/1 guruh talabalari****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19549035>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada go'daklik davrida emotsional muloqotning bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishidagi o'rni hamda uning psixologik-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional muloqotning go'dakning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi va psixik taraqqiyotidagi asosiy roli yoritilgan. Shuningdek, oilada to'g'ri tashkil etilgan emotsional muloqotning bolaning keyingi yosh davrlaridagi shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri ko'rsatib beriladi. Maqolada go'daklik davrida emotsional muloqot yetishmovchiligi yoki uning buzilishining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari tahlil qilinib, ushbu muammoni bartaraf etishning psixologik-pedagogik yo'llari taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Go'daklik davri, emotsional muloqot, psixik rivojlanish, shaxs shakllanishi, oila psixologiyasi, yetakchi faoliyat, ijtimoiy moslashuv, hissiy intellekt, emotsional bog'lanish, psixologik tarbiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль эмоционального общения в младенческом возрасте в психическом и личностном развитии ребенка, а также его психолого-педагогическое значение. В исследовании освещается ключевая роль эмоционального общения в эмоциональном состоянии, социальной адаптации и психическом развитии младенца. Также показано влияние правильно организованного эмоционального общения в семье на формирование личности ребенка в последующие возрастные периоды. В статье анализируются возможные негативные последствия недостатка или нарушения эмоционального общения в младенческом возрасте и предлагаются психолого-педагогические пути решения данной проблемы.

**Ключевые слова.** Младенческий возраст, эмоциональное общение, психическое развитие, формирование личности, семейная психология, ведущая деятельность, социальная адаптация, эмоциональный интеллект, эмоциональная привязанность, психологическое воспитание.

**Abstract.** This article analyzes the role of emotional communication in infancy in the child's mental and personal development, as well as its psychological and pedagogical significance. The study highlights the key role of emotional communication in the infant's emotional state, social adaptation, and mental development. It also shows the influence of properly organized emotional communication in the family on the formation of the child's personality in subsequent age periods. The article analyzes possible negative consequences of lack or disruption of emotional communication in infancy and suggests psychological and pedagogical ways to solve this problem.

**Keywords.** Infancy, emotional communication, mental development, personality formation, family psychology, leading activity, social adaptation, emotional intelligence, emotional attachment, psychological education.

**KIRISH**

Inson hayotining dastlabki yillari, xususan, go'daklik davri shaxs sifatida shakllanishning eng muhim va nozik bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning psixik rivojlanishi, hissiy sohasi va ijtimoiy moslashuvining asosiy poydevori qo'yiladi. Rivojlanish o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qator bosqichlarda amalga oshadi va bu jarayonda bola atrofdagi odamlar bilan kundalik muloqotlari hamda amaliy faoliyatida aql-zakovatining ko'rsatkichi, sifati va xarakterini namoyon qiladi.

Go'daklik davrida bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishi va uning to'g'ridan-to'g'ri emotsional hissiy yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kattalar bilan emotsional munosabat 1-3 yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu sababli, emotsional muloqotning to'g'ri tashkil etilishi yoki uning yetishmasligi bolaning keyingi butun hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda go'daklik davrida emotsional muloqotning roli tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan masalalardan biriga aylangan. Oila psixologiyasi va yosh davrlari psixologiyasi sohasidagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining asosiy tuzilmaviy qismlari, jumladan, uning hissiy intellekti, ijtimoiy munosabatlar qobiliyatlari va o'ziga bo'lgan ishonchi aynan go'daklik va erta yoshdagi tarbiya jarayoniga chambarchas bog'liqdir.

Mazkur maqola go'daklik davrida emotsional muloqotning bolaning psixik rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni, uning psixologik-pedagogik ahamiyatini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot asosida emotsional muloqotning go'dak rivojlanishidagi strategik rolini aniqlash, psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan tizimli modelni shakllantirish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, maqolada emotsional muloqotning buzilishi oqibatlarini va ularning oldini olishning amaliy tavsiyalari taklif qilinadi.

### **METODOLOGIYA**

Mazkur maqola nazariy-tahliliy yo'nalishda ishlab chiqilgan bo'lib, unda empirik tadqiqot metodlaridan foydalanilmagan. Tadqiqot jarayoni ilmiy bilishning analitik va sintetik prinsiplari asosida tashkil etilgan bo'lib, u go'daklik davrida emotsional muloqotning psixologik asoslarini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasining asosiy komponentlari ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, konseptual umumlashtirish hamda tizimlashtirishdan iborat.

Tahlil jarayonida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, shu jumladan yosh davrlari psixologiyasi, oila psixologiyasi, bolalar psixologiyasi va pedagogika sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar keng doirada o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali turli konseptual yondashuvlar va nazariy modellarning go'daklik davrida emotsional muloqotning rivojlanishdagi ahamiyatini tushuntirishdagi samaradorligi konseptual jihatdan qayta talqin qilindi.

Metodologik asos sifatida L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, D.B.Elkoninning yosh davrlari davriylashtirishi hamda M.I.Lisinaning go'daklik davrida muloqotning genezisi haqidagi nazariy qarashlari qabul qilindi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir bolaning individual psixologik ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda uning rivojlanish jarayonini optimallashtirishga imkon beradi.

Shu tariqa, maqolada qo'llangan metodologik yondashuv go'daklik davrida emotsional muloqotning bolaning psixik rivojlanishi, hissiy intellekti va ijtimoiy moslashuvidagi strategik rolini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarini nazariy jihatdan tizimlashtirish

orqali emotsional muloqotning go'dak psixikasiga ta'sir mexanizmlarini konseptual darajada aniqlash imkoniyati yaratiladi.

### **MUHOKAMA**

Go'daklik davri inson hayotining 0 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bosqichini qamrab oladi va bu davr psixologiyasi har bir yosh davrining qaytarilmas xususiyatlarini, yillar o'tgan sari asta-sekinlik bilan bola qanday qilib inson bo'lib shakllanishi, shaxs sifatida o'zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi va emotsional muloqotni shakllantirib borishi bilan kechadi. Ushbu bosqichda emotsional muloqot bolaning rivojlanishida markaziy o'rin tutadi va uni bir necha asosiy yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin.

Birinchidan, emotsional muloqot go'dakning yetakchi faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Kattalar bilan emotsional munosabat 1-3 yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Chaqaloq o'z hayotini shartsiz refleks, ya'ni qichqiriq bilan boshlaydi, bu esa nutqning birinchi belgisi hisoblanadi. Dastlab bu qichqiriq asosan fiziologik ehtiyojlarni bildirish vositasi bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u emotsional muloqotning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Ikkinchidan, emotsional muloqot bolaning hissiy intellekti va ijtimoiy qobiliyatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bir yarim — ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o'zining kulgisi bilan javob qaytaradi. 4—5 oylik go'dakning munosabati o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, u o'z oila a'zolarini begona kishilardan ajrata boshlaydi. Bu esa go'dakda emotsional bog'lanish va ijtimoiy idrokning rivojlana boshlaganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, oilada to'g'ri tashkil etilgan emotsional muloqot bolaning keyingi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Maqolalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bolaning psixik rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi, atrof-muhitga moslashuvi, o'zini anglash va boshqalar bilan munosabat o'rnatish qobiliyati, aynan go'daklik va erta yoshdagi tarbiya jarayoniga chambarchas bog'liqdir. Oiladagi muhit, ota-ona va tarbiyachilarning roli, mehr-muhabbat, tushunish va emotsional qo'llab-quvvatlash kabi psixologik omillar bolaning sog'lom rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, emotsional muloqotning buzilishi yoki yetishmovchiligi jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yetarlicha emotsional muloqotga ega bo'lmagan bolalarda ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar, hissiy sohaning sust rivojlanishi va keyingi yosh davrlarida turli psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy-psixologik va emotsional holatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ona mehridan va etarli darajadagi emotsional muloqotdan mahrum bo'lgan bolalarda psixik rivojlanishning kechikishi va ijtimoiy moslashuv muammolari kuzatiladi.

Beshinchidan, go'daklik davrida emotsional muloqotning to'g'ri tashkil etilishi nafaqat bolaning hozirgi rivojlanishi, balki uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Bolada rivojlangan emotsional intellektga ega bo'lgan shaxslar jamoalarni ilhomlantiradilar va rag'batlantiradilar, insonlarning ehtiyojlarini tushunadilar, nizolarni samarali hal qiladilar va ishonchli munosabatlarni o'rnatadilar. Shuning uchun ham go'daklik davridagi emotsional muloqotni to'g'ri tashkil etish nafaqat oila, balki jamiyat miqyosidagi muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Biroq, amaliyotda ko'pincha ota-onalar go'dak bilan muloqotning to'g'ri usullarini bilmasliklari yoki yetarlicha vaqt ajratmasliklari kabi muammolar mavjud. Ayrim hollarda esa, kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishlariga va unga o'z diqqatlarini qaratishlariga

odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi bilan birgalikda, dastlabki senzitiv jarayonning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, emotsional muloqotda me'yor va muvozanatni saqlash, bolaning mustaqilligini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **XULOSA**

Umumlashtirib aytganda, go'daklik davrida emotsional muloqot bolaning psixik rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy moslashuvining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Kattalar bilan emotsional munosabat 1-3 yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lib, bu davrda to'g'ri tashkil etilgan muloqot bolaning hissiy intellekti, ijtimoiy qobiliyatlari va o'ziga bo'lgan ishonchining rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Emotsional muloqotning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Go'dakning dastlabki emotsional tajribalari va ijtimoiy idroki aynan kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi;
2. Ota-onalarning mehr-muhabbati, tushunishi va emotsional qo'llab-quvvatlashi bolaning sog'lom psixik rivojlanishining garovidir;
3. Emotsional muloqotning yetishmovchiligi yoki buzilishi bolada turli psixologik muammolarning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin;
4. Go'daklik davrida emotsional muloqotning to'g'ri tashkil etilishi bolaning keyingi butun hayoti davomidagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarining asosini tashkil qiladi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda chuqur nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borish go'daklik davrida emotsional muloqotni optimallashtirishning samarali modellari hamda amaliy strategiyalarini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Shuningdek, ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini oshirish, oilalarda sog'lom emotsional muhitni shakllantirish va go'daklar bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, yosh avlodning sog'lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladigan psixologik-pedagogik tizimni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Jomurodova M.Sh. (2024). GO'DAKLIK DAVRI RIVOJLANISHI, PSIXOLOGIYASI VA EMOTSIONAL MULOQOTNING AHAMIYATI. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(4), 706-707.
2. Abduqodirova D.E. (2026). INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI. 10.5281/zenodo.18212070
3. Xasanova S.M., Xaydarova R.J. (2024). BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNGA OILANING TA'SIRI. Best Publication.
4. Karimova V.M. (2022). Psixologiya. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
5. Nishonova Z., Asomiddinova Sh. (2010). Psixologik maslahat. Toshkent.
6. Safoev N.S. (2021). Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika. Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO".
7. To'ychiyeva S.M. (2015). Oila psixologiyasi. Toshkent.
8. Haydarov F.I. (2006). Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

9. Rahmanqulov S. (2024). MEHRIBONLIK UYI BOLALARINING PSIXOLOGIK VA AXLOQIY RIVOJLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 58–60.
10. Vohidov M.M., Davletshin M.G. Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

